

MAO SZEDUN - XITOYNI KOMMUNIZMI ASOSCHISI

NAJMIDDINOV QODIRJON MURODJON O`G`LI

Namangan davlat universiteti

Tarix magistratura mutaxassisligi 2-bosqich magistranti,

Namangan tumani XTB ga qarashli 26-maktab tarix fani o`qituvchisi

Telefon: +99894 309 13 27

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XX asr Xitoyda kommunizm jamiyatni qurish ishini boshlab bergan Mao Szedun hayoti va faoliyati tahlil etilgan. Mao SSSR da bo`lganidek jahonda Xitoyni ham ulkan sotsialistik davlatga aylantirishni maqsad qildi. Xitoyda kommunizm qurilishi o`sha davrdagi Xitoy jamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol va siyosiy kuchlar nisbatini ham o`zida aks ettirardi. U Xitoyda sotsializm qurish dasturini ilgari surdi va mamlakat iqtisodiyotini ma`muriy boshqaruv asosida qayta qurdi. Uning mamlakatda “katta sakrash” va “madaniy inqilob” siyosati natijasida aholi orasida noroziliklar, qarama qarshiliklar vujudga keldi. Ushbu maqolada Mao Szedun amalga oshirgan siyosiy va iqtisodiy tadbirlar va ularning Xitoy jamiyati uchun ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: shaofan, “yuzta gul”, “qishloqni kommunalashtirish”, xunveybinlar, “katta sakrash”, “madaniy inqilob”, MIG, “shaxsga sig`inish”, “to`rtlar to`dasi”, Revkom, XKP, XXR, proletariat

Kirish

1949-yil oktabrda Xitoyda Mao Szedun boshchilidagi kommunistlar Xitoy Xalq Respublikasi tuzilganligini e`lon qildilar. Va mamlakatda sotsializm mafkurasi asosiy kuchga aylandi. XXR tuzilishi dunyoda ikkinchi yirik sotsialistik davlatning paydo bo`lishi edi. Bu global dunyoda sotsialistik mafkura bilan kapitalistik mafkuraning kuchlar nisbatiga sezilarli ta`sir ko`rsatdi. XXR dastlab ichki va tashqi siyosatida SSSRga tayandi. Chunki, AQSH boshchiligidagi g`arb mamlakatlari kommunistik mafkurani qabul qila olmadilar va unga ochiqchasiga dushmanlik qildilar. Shuning uchun iqtisodiy va texnologik jihatdan kuchli kapitalistik mamlakatlar bilan a`loqalar dastlabki yillarda ijobiy bo`lmagan. Iqtisodiy islohotlar chuqur o`ylanmagan va tartibsiz amalga oshirilishi, ma`muriyatchilik Xitoyda ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytirib yubordi. Mamlakatdagi bunday noroziliklarni bostirish uchun Mao Szedun hukumati kuch ishlatar tuzilmalarga tayandi va raqiblarni jismoniy yo`qotish yo`lidan bordi. Shuning uchun ham Mao Szedun siyosiy yo`li Xitoy jamiyati va ziyolilari orasida o`sha davrda ham, uning o`limidan keyin ham turli muhokamalarga sabab bo`lib kelmoqda.

Mao Szedun 1893-yil 26-dekabrda Xitoyning Xunan viloyati Syantan uyezdi Shaoshan qishlog`ida dehqon oilasida dunyoga kelgan. Bolagida u xususiy maktabga qatnagan. Keyinchalik Chansha sharidagi o`rta maktabni tamomlaydi. 1913-yilda Xunan viloyatidagi pedagogika bilim yurtiga o`qishga topshirdi va uni 1918-yilda tamomladi. XX asrning eng murakkab shaxslaridan biri bo`lgan Mao Szedun K.Marks, F.Engels, V.Lenindan iborat klassik uchlik bilan bir qatorda marksistik siyosiy ongning ustunlaridan biri hisoblangan. Xitoy kommunistik partiyasi va Xitoy Xalq Respublikasining asoschilaridan biri hisoblangan Mao Szedunni shafqatsizlik, maqsadga intilishda qat`iyat ajratib turardi. U yoshligida o`qigan Konfutsiy, Kay Yuvey, Lyan Sichao, Sun Yat Sen, Lev Tolstoy va shuningdek, neokantchilar va neogegelchilarning asarlari u yoki bu darajada unga ta`sir ko`rsatgan va dunyoqarashining shakllanishiga ko`maklashgan. U 1918-yilda Chansha shahrida Xitoyning o`zgartirishning yo`llari va uslublarini aniqlash maqsadida “Yangi xalq” jamiyatini tuzdi. Jamiyat tuzilganidan keyin tez orada Mao ilg`or g`oyalarni va inqilobiy tajribani o`rganish maqsadida Fransiyaga borishga yoshlardan guruh tuzdi. 1918-1919-yillarda Pekinda yashadi. U yerda marksizm bilan tanishdi va ta`limotning otashin muxlisi bo`lib qoldi. Biroz

keyinroq u o`ziga Chan Kayshining e`tiborini qaratdi va Gomindanning tashviqot bo`limi boshlig`i bo`ldi. Lekin keyinchalik Chan Kayshi bilan siyosiy kelishmovchiliklar paydo bo`ldi va uni 1925-yilda vazifasidan bo`shatdilar. Va u Xitoy Kommunistik partiyasining eng so`l qanotiga mansub bo`lgan dehqonlar harakati rahbarlarini tayyorlovchi kurslarning xodimi bo`ldi. Biroq bir qancha muvaffaqiyatsiz qo`zg`olonlar olib borilganidan keyin Mao XKP rahbarligidan haydaldi. Biroq u o`ziga sodiq bo`lgan kuchlarni to`pladi va tog`larga chekindi. U yerda 1928-yilda “Omnia tomon yo`l” deb nomlangan armiya tuzdi. Mao yana bir kommunist Chju De bilan to`glarda, ya`ni Xunan va Szyansi provinsiyalari chegaralaridagi Szingan tog`larida o`zlarining sovet respublikalarini tuzdilar. 1934-yilda uning 15 million aholisi bor edi. Mao qo`shinlari Gomindanning sovetlarni yo`q qilishga qaratilgan to`rtta hujumini muvaffaqiyatli qaytardi. 1930-yilda gomindanchilar Maoning xotini Yan Kayxayni qatl qildilar. 1934-yilda Szingandagi sovetlarga qarshi beshinchi hujumdan keyin Maoning 86 000 erkak va ayol bilan bu hududni tark etishiga to`g`ri keldi. 1935-yilning oktabrida Mao o`zining 400 kishilik tarafdorlari bilan partiyaning yangi shtab kvartirasini tuzdi. Bu davrda Yaponiyaning Xitoyga bostirib kirishi Gomindan va XKP ni birlashishga majbur qildi. Va 1936-yil dekabrda Mao Chan Kayshi bilan yarashdi. Mao 1940-yilda yaponlarga qarshi bir nechta janglar olib bordi. Lekin asosiy e`tiborini XKP ning Shimoliy Xitoydagi pozitsiyasini kuchaytirishga va o`zining partiyadagi rahbarlik rolini mustahkamlashga qaratdi. 1940-yilning martida u XKP Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi Raisi etib saylandi. Urush tugashi bilan XKP va Gomindan o`rtasidagi nochorgina yarashuv ham barham topdi. Koalitsion hukumat tuzishga bo`lgan urinishlarga qaramasdan shafqatsiz fuqarolar urushi boshlanib ketdi. 1946-1949-yillarda Maoning qo`shinlari Chan Kayshi qo`shinlarini birin-ketin mag`lubiyatga uchratdi, oxir oqibatda ular Tayvan oroliga qochishga majbur bo`ldi. 1949-yilning oxirida Mao va uning kommunist tarafdorlari qit`ada Xitoy Xalq Respublikasini e`lon qildilar. Chan Kayshini va millatchi Xitoyni qo`llagan Qo`shma Shatatlar Maoning ular bilan diplomatik aloqa o`rnatishga bo`lgan urinishlarini rad etdi, bu bilan uni Stalin bilan hamkorlik qilishga undadi. 1949-yil Mao SSSRga keldi. Bosh vazir Chjou Enlay esa Stalin bilan muzokara olib bordi va 1950-yilning fevralida Xitoyga qaytishi oldidan Do`stlik, hamkorlik va o`zaro yordam haqidagi shartnomaga imzo chekdi. 1957-yil Mao shiori “Mayli, yuzlab gullar yashnasin, mayli, turli dunyoqarashlarning minglab maktablari raqobat qilsinlar” so`zlari bo`lgan “Yuzlab gullar yashnasin” harakatining tashabbuskori bo`ldi. U ijod ahli tomonidan partiyaning, uning siyosiy rahbarlik hamda boshqaruvchilik uslublarining qo`rqmasdan tanqid qilinishini ma`qullardi. Avvaldan shunday o`ylab qo`yilganmi yoki shunchaki tanqidning dushmanona ohangidan qo`rqqanidanmi, tez orada Mao kuchayib borayotgan “Yuzta gul” harakatini “boshqacha fikrlovchilar” ga tomon burib yubordi va o`z vaqtida Stalin kabi o`z shaxsiga sig`inishni yaratishga kirishdi. Shuning bilan birgalikda dehqonlarga qarshi zarbani berishni yangidan boshladi, ularni xususiy mulkni to`liq yo`q qilishga, tovar ishlab chiqarishni yo`qotishga va xalq kommunalari tuzishga chaqirdi. U maqsadi butun mamlakat miqyosida sanoatlashtirishni tezlashtirish bo`lgan “Katta sakrash” dasturini nashr ettirdi. Partiya syezdlarida “Uch yillik qattiq mehnat va o`n ming yillik rohat qilish” yoki “o`n besh yil ichida Angliyani eng muhim sanoat mahsulotlari hajmi bo`yicha quvib o`tish undan o`zib ketish” singari Xitoydagi ishlarining real holatiga mos kelmaydigan va obyektiv iqtisodiy qonunlarga suyanmaydigan shiorlar ilgari surilardi. 1958-yilning oxirlaridayoq “Katta sakrash” va “Qishloqni kommunalashtirish” siyosati boshi berk ko`chaga kirib qolganligining belgilari paydo bo`la boshladi. Shunga qaramasdan, Mao o`jarlik bilan belgilangan yo`lni davom ettirardi. “Katta sakrash” ning yanglishishlari va xatolari XXR xalq xo`jaligidagi og`ir ahvolning sababchisi bo`ldi. Sanoatda jiddiy nomutanosiblik paydo bo`ldi, inflatsiya kuchaydi, xalqning hayot darajasi keskin pasaydi. Qishloq xo`jalik va sanoat mahsulotlari hajmi keskin qisqara boshladi. Mamlakatda don yetishmas edi. Buning barchasi mamuriy xo`jaliksiz va yomon tabiiy sharoitlar bilan birlashib umumxalq ochligini keltirib chiqardi. “Katta sakrash” siyosati faqat xalqning qarshiligigagina emas, XKP ning ko`zga ko`ringan arboblari Pen Dexuaya, Chjan Ventan va boshqalar tomonidan keskin tanqidga uchradi. Mao o`zidan davlat boshlig`i vazifasini soqit qildi va Lyu Shaosi uning o`rnini egalladi. 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarning boshlarida Mao o`ziga yolg`izlikda va xotirjamlikda yashashni ma`qul ko`rdi, lekin mutlaqo faoliyatsizlikda emas, chunki 1960-yillarning o`rtalarida u ijtimoiy faoliyatga qaytdi va Lyu

Shaosiga puxta o`ylangan hujum uyushtirdi. Kurashning asosi Mao taklif qilgan “buyuk proletar madaniy inqilob” bo`ldi. “Madaniy inqilob” ning birinchi bosqichi 1966-1969-yillarda bo`lib o`tdi. Bu inqilobning eng faol va vayron qiluvchi bosqichi bo`ldi. Harakatning boshlanishi uchun asosiy sabab 1965-yilda chop etilgan Yao Venyunning “Xay Juyning mansabdan tushirilishi” tarixiy dramasi yangi tahriri haqidagi maqolasi bo`ldi. Pyesa mashhur Xitoy tarixchisi, Pekin hokimining o`rinbosari U. Xan tomonidan yozilgandi. U o`z dramasi o`rta asrlardagi Xitoy hayotidan bir ko`rinishni tasvirlayotganida go`yoki 1959-yili XXR dagi “Katta sakrash” ga va xalq kommunalariga salbiy baho bergan XXR ning sobiq mudofaa vaziri Pen Dexuaning quvg`in qilinishi va mansabdan ozod etilishi adolatsizlik ekanligiga sha`ma qilganlikda ayblangan edi. Pyesa maqolada “antisotsialistik zaharli o`t” deb nomlandi. Buning ortidan XKP Pekin shahar komiteti rahbarlariga va XKP MK tashviqot bo`limiga qarshi ayblovlar bo`ldi. 1966-yilning may oyida XKP MK Siyosiy byurosining kengaytirilgan majlisida Mao Szedunning “Madaniy inqilob” haqidagi asosiy g`oyalari bayon qilingan axboroti tinglandi, undan keyin partiya, hukumat va armiyaning bir qator oliy rahbarlari keskin tanqid ostiga olindi, keyin esa lavozimlaridan ozod etildi. Shuningdek, Maoning sobiq kotibi Chen Bod boshchiligida madaniy inqilob ishlari bo`yicha guruh (MIG) tashkil qilindi. Maoning xotini Szyan Sin va Shanxay shahar komitetining kotibi Chjan Chunnyaolar uning o`rinbosarlari bo`ldilar, XKP MK kotibi, davlat xavfsizlik organlarining rahbari Kan Shen guruh maslahatchisi bo`ldi. Asta-sekin MIG siyosiy byuroning hamda Kotibiatning o`rnini bosa boshladi va Maoning harakatlari bilan “madaniy inqilob”ning shtabiga aylandi. Partiyadagi muxolifat kuchlarini yengish uchun Mao va uning tarafdorlari siyosiy yetuk bo`lmagan yoshlardan foydalandilar, ulardan Xunveybinlarning hujumkor otryadi – “qizil qo`riqchilar”ni tuzdilar. Birinchi Xunveybinlar 1966-yilning oxirlarida Pekinning Sinxua universiteti qoshidagi o`rta maktabda paydo bo`lgan. Xunveybinlar birinchi manifestida shunday deyilgandi: Biz qizil hokimiyatni, partiya MK ni himoya qiluvchi qo`riqchilarmiz. Rais Mao bizning suyanchig`imiz. Butun insoniyatni ozod qilish bizning majburiyatimizdir. Mao Szedun g`oyalari bizning barcha ishlarimizda eng yuksak ko`rsatmalardir. Biz qasamyod qilamizki, MK ning himoyasi uchun, buyuk dohiy Rais Maoning himoyasi uchun biz hech o`ylab o`tirmasdan, so`nggi tomchi qonimizni ham beramiz, madaniy inqilobni qat`iyat bilan oxirigacha olib boramiz”. Maoning tashabbusi bilan talabalarga “madaniy inqilob” ni olib borish uchun hech narsa halaqit qilmasligi uchun maktab va oliy o`quv yurtlarida o`qish to`xtatib qo`yildi. Ziyolilarni, partiya va komsomol a`zolarini ta`qib qilish boshlandi. Professorlarni, maktab o`qituvchilarini, fan va san`at arboblarni, keyin esa ko`zga ko`ringan partiya va davlat xizmatchilarini masxarabozlik qalpoqlarini kiydirib “omma oldiga” olib chiqardilar va go`yoki ularning “revizionistik harakatlari” uchun, aslida esa, mamlakatdagi ahvol haqida mustaqil fikr yuritganligi uchun XXR ning ichki va tashqi siyosati haqida tanqidiy fikrlar bildirganligi uchun kaltakladilar, xo`rladilar. Davlat xavfsizlik xizmatining Pekin bo`limi bergan, unchalik to`liq bo`lmagan axborotlarga ko`ra, 1966-yilning avgust-sentabr oylarida faqat Pekinning o`zida xunveybinlar 1722 kishini o`ldirganlar, 33695 oilaning mol-mulkini musodara qilganlar, uylarida tintuv o`tkazib, poytaxtdan quvg`in qilganlar. 1966-yilning 3 oktabriga qadar shaharlardan “manfur” bo`lgan 397400 kishi badarg`a qilingan. Mamlakat ichkarisidagi terror tajovuzkorona tashqi siyosat bilan to`ldirildi. Mao Stalin shaxsiga sig`inishning fosh etilishiga, Xrushchevning “iliqlik” siyosatiga qarshi chiqdi. 50-yillarning oxiridan boshlab Xitoy tashviqoti KPSS rahbarlarini buyuk davlatchilik shovinizmida, Xitoyning ichki ishlariga aralashishda va uning harakatlarini nazorat ostiga olishga urinishda aybladi. Mao ta`kidlardiki, Xitoy xalqaro maydonda buyuk davlatchilik shovinizmi va gegemonizmining har qanday ko`rinishiga qarshi kurashmog`i lozim. Mao SSSR bilan 1950-yildagi do`stlik haqidagi shartnomada ko`zda tutilgan har qanday hamkorlikni yig`ishtira boshladi. Ularning Xitoyda ortiq turishlariga yo`l qo`ymaslik uchun sovet mutaxassislariga qarshi kompaniya uyushtirildi. XXR rahbarlari sovet-xitoy chegarasidagi ahvolni ataylab keskinlashtirib bordilar. SSSR ga ochiqdan ochiq hududiy da`volar qila boshladilar. 1969-yilda ish Damansk yarimorolida va Semipalatinsk viloyatida oshkora hududiy to`qnashuvlarga yetib bordi. 1966-yilning avgustida XKP MK ning plenumi bo`lib o`tdi, unda ta`qibdagilarning ko`pi ishtirok eta olmadi. 5-avgustda shaxsan Maoning o`zi majlislar zalida o`zining “Shtablarga o`t och!” degan daszibaosini yozdi va osib

qo`ydi. U plenum qatnashchilariga “burjuaziya shtabi” mavjudligini e`lon qildi, markazdagi joylarda esa ko`pgina partiya rahbarlarini “burjuaziya diktaturasi” ni amalga oshirishga urinayotganlikda aybladi va markazdagi hamda joylardagi partiya organlari, xalq komitetlari, mehnatkashlarning ommaviy tashkilotlarini to`liq vayron qilishni yoki faoliyatsizlantirishni, keyin esa yangi “inqilobiy” hokimiyat organlari tuzishni nazarda tutib, shtablarga “o`t ochish” ni buyurdi. Plenumda partiya rahbariyati qayta tashkil etilganidan keyin partiya MK ning raisining amaldagi beshta o`rinbosaridan bittasi – Mao Szedun vorisi deb hisoblangan mudofaa vaziri Lin Byaogina qoldi. Maoning xunveybinlar bilan yozishmalari natijasida va plenum nutqidagi “shtablarga o`t och” chaqiriqlaridan keyin xunveybinlarning beboshligi yanada kengroq avj ola boshladi. Hukumat organlari, jamoat tashkilotlari, partiya komitetlari vayron qilina boshlandi. Amaldagi xunveybinlar davlat va partiya tashkilotlaridan ustun qo`yilgan edi.

Mamlakatdagi hayot izdan chiqqan, iqtisodga juda og`ir ziyon yetkazilgan, yuz minglab XKP a`zolari jazoga tortilgan, ziyolilarni ta`qib qilish kuchaygan edi. “Madaniy inqilob” yillarida “To`rtlik ishi” bo`yicha tergov xulosasida, XKP MK ning, turli toifadagi jamoat xavfsizligi organlari, prokuratura, sud, armiya, tashviqot organlarining rahbar xodimlaridan juda ko`pchiligi quvg`in qilingan va yo`qotilgan”. “To`rtlik” va Lin Byaoning hujjatlariga ko`ra, umumiy hisobda 727 mingdan ko`proq kishi qurbon bo`lgan, ulardan 34 mingdan ortig`i “o`lishga majbur qilingan”. Rasmiy Xitoy hujjatlariga ko`ra, “madaniy inqilob” yillarida jabr ko`rganlarning umumiy soni 100 millionga yaqin kishini tashkil qilgan. 1966-yilning dekabrda xunveybin otryadlari bilan bir qatorda, isyonkorlar (Szaofan) otryadlari ham paydo bo`ldi. Ularga yosh, ko`pincha malakasiz ishchilar, xizmatchilar, o`quvchilar jalb qilingan. Ular “madaniy inqilob” ni tashkilotlarda, korxonalarda olib borishlari, ishchilarning xunveybinlarga qarshiliklarini mahv etishlari kerak edi. Lekin ishchilar XKP komitetlarining chaqiriqlari bilan o`z-o`zidan bezorilik qilayotgan xunveybin va szaofanlarga zarba berardilar, iqtisodiy ahvollarining yaxshilanishiga erishardilar, o`z da`volarini bayon qilish uchun poytaxtga borardilar, ishlashni to`xtatardilar, ish tashlash e`lon qilardilar, talonchilar bilan jangga kirardilar. Partiya organlarining vayron qilinishiga mamlakatning ko`pgina mamlakat oliy rahbariyat odamlari qarshi chiqdilar. “Madaniy inqilob” dushmanlarini yengish uchun “hokimiyatni egallash” kompaniyasi amalga oshirildi. 1967-yilning yanvarida Shanxayning szaofanlari shaharda hokimiyatni qo`lga oldilar. Shundan so`ng “hokimiyat qo`llarida bo`lgan va kapitalistik yo`ldan borayotganlardan hokimiyatni egallash” to`lqini butun Xitoy bo`ylab avj oldi. 1967-yilning yanvarida Pekinda 300 ta muassasa va tashkilotlarda hokimiyat egallab olindi. Partiya komitetlariga va hokimiyat organlariga ular XXR tuzilganidan buyon “kapitalizmni restavratsiya qilishga” uringanlikda ayblovlari qo`yildi. Mavjud qarshiliklarni bostirgan va aloqa vositalari, qamoqxonalar, omborlar, yashirin hujjatlarni saqlash va tarqatish, banklar, markaziy arxivlarni nazorat qiluvchi armiya yordamida “hokimiyatni egallash” amalga oshirildi. “Isonkorlar” ga yordam berish uchun maxsus harbiy qismlar ajratilgan edi. Chunki armiyada ham xunveybinlardan norozilik mavjud edi. “Hokimiyatni egallash” dasturini tezda amalga oshirib bo`lmadi. Ishchilarning ish tashlashlari kuchayib borardi, hamma yerda xunveybinlar va szaofanlardan noroziliklar bo`lib qonli to`qnashuvlar tez-tez takrorlanib turardi. Xitoy tarixchilari shunday deb yozadilar: “Xitoy tartibsizliklar hukmron bo`lgan va terror boshqargan davlatga aylandi. Barcha darajadagi hukumat va partiya organlari ishdan chiqarilgan edi. Rahbar kadrlar va bilim hamda tajribaga ega bo`lgan ziyolilar quvg`in ostiga olindi”.

1967-yilning yanvaridan boshlab mahalliy hokimiyatning antikonstitutsion organlari – revkomlar tuzish boshlandi. Dastlabki paytlarda ularda xunveybinlar va szaofanlarning yetakchilari ko`pchilikni tashkil qildi va bu holat partiya xodimlari va harbiylarning noroziligiga sabab bo`ldi. Markazda va joylarda siyosiy kurash avj oldi, bir qator hududlarda harbiy qismlar bilan xunveybinlar va szaofanlar uyushmalari o`rtasida to`qnashuvlar kelib chiqdi. 1971-yilning oxirida mamlakat amalda harbiy nazorat ostiga olingan edi. 1968-yilning oktabrida bo`lib o`tgan XKP MK plenumida a`zolarining faqat uchdan bir qismigina qatnashdi, chunki qolganlari bu paytga kelib jazolangan edilar. Plenum “madaniy inqilob” ning barcha faoliyatini ma`qulladi, partiya safidan Lyu Shaosini o`chirdi, uni barcha lavozimlardan bo`shatdi, XKP yangi ustavi loyihasini ma`qulladi. XKP ning IX syezdini chaqirishga qizg`in tayyorgarlik boshlandi. Delegatlari saylanmagan, tayinlangan

XKP ning IX syezdi 1969-yil aprelida bo`ldi. Syezd 1965-1969-yillarda amalga oshirilgan barcha ishlarni ma`qulladi va qonuniylashtirdi. Syezdda Lin Byao qilgan asosiy ma`ruzada 1968-yilning bahorida boshlangan partiya tashkilotlari va davlat muassasalarini tozalashni davom ettirish lozimligiga ko`rsatma berildi. Partiyaning butun tarixi “Mao Szedun yo`li” ning turli “og`ishmachilar” ga qarshi kurashi sifatida bayon etilgan. IX syezd uzluksiz inqilobga, urushga tayyorgarlik ko`rishga yo`nalishni ma`qulladi. Partiyaning syezd qabul qilgan yangi ustavi 1956-yilgi Ustavdan farqli ravishda partiyaning iqtisodiy va madaniy qurilish, xalqning hayotini yaxshilash, demokratiyani rivojlantirish sohasidagi vazifalarini aniqlab bermadi. XKP faoliyatining nazariy asosi deb “Mao Szedun g`oyalari” e`lon qilindi. Ustavning dastur qismida Lin Byaoni Maoning “vorisi” deb tayinlash haqidagi modda ham mavjud edi. Absolyut monarxiyaga xos bo`lgan, XKP ustaviga kiritilgan voris haqidagi modda xalqaro kommunistik harakatdagi “novatorlik hodisasi” hisoblanardi. Bu haqiqatan ham g`alati ko`rindi, chunki kommunistik harakat paydo bo`lgandan buyon bunday voqea hali uchramagan edi. U dunyo uchun qanday ahamiyat kasb etganini aytish qiyin, lekin u Xitoy uchun halokat yoqasiga olib keldi. IX syezddan keyin o`z pozitsiyalarini saqlab qola olgan rahbarlardan ba`zilari mamlakat taraqqiyotining dolzarb ehtiyojlarini hisobga olib, Maodan ekstremistik ko`rsatmalarga tuzatishlar kiritishni talab qiladilar. Ularning talablari bilan 70-yillarning boshlaridan ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish, mehnat bo`yicha taqsimlash, moddiy rag`batlantirish elementlari kiritila boshlandi. Shuningdek, xalq xo`jaligini boshqarishni, ishlab chiqarishni tashkil qilishni yaxshilash bo`yicha ham choralar qabul qilindi. Madaniy hayot ustidan qattiq nazorat oldingidek saqlanib qolishiga qarmasdan, bu sohadagi siyosatda ham bazi bir o`zgarishlar yuz berdi. 1970-1971-yillarda Xitoy rahbariyati orasidagi yangi inqirozlarni aks ettiruvchi voqealar bo`lib o`tdi. 1970-yilning mart oyida Mao XXR Raisi lavozimini bekor qilish haqidagi taklifini aytib, XXR Konstitutsiyasini qayta ko`rib chiqish haqida qaror qabul qildi. Mudofaa vaziri Lin Byao va madaniy inqilob ishlari bo`yicha rahbar Chen Boda uning fikriga qo`shilmadilar. 1972-yilda AQSH bilan diplomatik va iqtisodiy aloqalar o`rnatish yo`liga kirib, Mao Pekinda o`sha yili AQSH Prezidenti R. Niksonni qabul qildi va dunyoni hayratga soldi. 1975-yilning yanvarida 10 yillik tanaffusdan keyin Mao parlament chaqirishga yo`l qo`ydi. XXR ning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya o`zida o`zaro kelishuv natijalarini namoyon etardi: bir tomondan, unga 1965-1969-yillardagi ko`rsatmalar ham kiritilgan edi, boshqa tomondan u kommuna a`zolarining tomorqaga egalik huquqini mustahkamlardi, ishlab chiqarish brigadalarini xo`jalik hisobining asosiy birligi deb tan olardi, xalq hayotining moddiy va ma`naviy darajasi muttasil oshirilishini, mehnatga haq to`lanishini nazarda tutardi. Yangi konstitutsiya qabul qilingandan keyin tez orada “madaniy inqilob” davrida yuqoriga ko`tarilganlar o`z pozitsiyalarini mustahkamlashga yangidan urinib ko`rdilar. Ana shu maqsadda Maoning tashabbusi bilan 1974-1975-yillari “proletariat diktaturasi” nazariyasi” ni o`rganish shiori ostida kompaniya o`tkazildi. Bu kompaniyalarning asosiy vazifasi iqtisodiy rivojlanishga e`tiborni kuchaytirish, xalq xo`jaligini boshqarishning oqilona uslublarini qo`llash zarurligini ta`kidlayotgan XKP rahbarlariga qarshi kurash edi. Yangi siyosiy kompaniya davomida mehnatga yarasha taqsimlash, tomorqaga ega bo`lish huquqlari, pul-tovar munsabatlari “burjuaziya huquqi” deb e`lon qilindi. Yangi kompaniya niqobi ostida ko`pgina sanoat korxonalarida va kommunalarida ishchilarning iqtisodiy manfaatlari cheklab qo`yilgandi. Bir qator holatlarda moddiy rag`batlantirish choralari bekor qilingan, belgilangan vaqtdan ortiq ishlatish qo`llanilgan, tomorqalari esa yo`q qilingan. Bularning barchasi xalqning ommaviy noroziligini, ish tashlashlar va g`alayonlarni keltirib chiqardi. Og`ir betoblikdan keyin 1976-yilning yanvarida XXR Davlat kengashi vaziri Chjou Enlay vafot etdi. O`sha yilning aprelida uning xotirasiga bag`ishlangan marosimlar paytida Pekinning markaziy maydoni – Tyananmenda ommaviy namoyishlar yuz berdi. Bu Mao Szeduning mavqeyiga kuchli zarba berdi. Namoyish qatnashchilari uning xotini Szyan Sin va madaniy inqilob ishlari bo`yicha guruhning boshqa a`zolarining faoliyatini qoraladilar va ularning chetlatilishini talab qildilar. Bu voqealar jazolashlarning yangi to`lqinlarini keltirib chiqardi. Den Syaopin barcha lavozimlardan ozod etildi, Davlat Kengashining jamiyat xavfsizligi vaziri Xua Gofen bo`ldi. Endi Xitoyda Den Syaopin va uning yaqin safdoshlariga qarshi yo`naltirilgan kompaniya boshlandi. “Hokimiyatga ega bo`lgan va kapitalistik yo`ldan borayotgan shaxslar” bilan kurash jiddiy ravishda boshlandi. Terror to`lqini

1976-yilning 9-sentabrida to`xtab qoldi, chunki shu kuni Mao Szedun vafot etdi. Uning merosxo`rlari darhol jazoga duchor qilindilar. Szyan Sin va uning “to`rtlar bandasi” deb atalgan eng yaqin safdoshlari qamoqqa olindi. Maoning raislik lavozimiga sinchiklab tanlangan vorisi Chjao Gofenni, hukumat mo`tadillar nazorati ostiga o`tishi bilanoq, ichki partiya doirasidan haydab yubordilar. “Madaniy inqilob” o`zida qarama-qarshiliklarning ajoyib aralashmasini aks ettirardi. “Yuzta gul” harakatidagidek uning ham asosiy tamoyillarini tanqid qilish, hokimiyatga ega bo`lgan kishilarning sofligiga shubha bilan qarash va “norozlik huquqi” qoidasi edi. Lekin, baribir uning maqsadi shaxsga sig`inishni – hamma joyda siymosi savlat to`kib turgan Mao Szedunning shaxsiga va g`oyalariga sadoqatni yaratish hamda mustahkamlash bo`lgan. Mao Szedun yozgan “Sitatalar” – kichkina qizil kitobchani har bir xitoylik erkak va ayol va bolaning qo`lida ko`rish mumkin edi. Shunday bo`lsa ham, Maoning vafotidan keyin bir necha yil o`tmasdanoq Xitoy kommunistik partiyasi, Maoning inqilob tashabbuskori sifatidagi obro`yini o`rniga qo`ygan holda, “madaniy inqilob” ni haddan oshiq terrorlar uchun, shu jumladan Maoning shaxsiga sajda qilganlik uchun ham qoraladi.

Xulosa

Xitoyda ikkinchi jahon urushidan keyingi siyosiy jarayonlar juda murakkab kechgan edi. Bu davrda qoloq davlat hisoblangan Xitoyda siyosiy kuchlar muvozanati ancha izdan chiqqan, g`alayonlar va qarama-qarshiliklar avjiga chiqqan edi. Shunday sharoitda Mao Szedun boshliq kommunistik kuchlar hokimiyatga keldilar va aholisi eng ko`p bo`lgan mamlakatda adolatli va farovon jamiyat qurish uchun sotsialistik davlat qurish ishini amalga oshirdilar. Lekin, hokimiyat egallangach islohotlar rejali va ma`muriy buyruqbozlik asosida olib borildi. Xuddi SSSR da bo`lganidek, besh yillik rejalar asosida sanoat va qishloq xo`jalik sohalarida loyihalar amalga oshirildi. Ba`zan, islohotlar amalda moddiy jihatdan yetarli taminlanmadi, boshqa holatda esa mavjud real vaziyatni hisobga olmagan holda rejalar tuzildi va ishlar bajarilmay qolib ketardi. Bu umumiy xalq norozliklariga sabab bo`ldi. Muxolifatni bostirish uchun Mao Szedun boshliq siyosiy kuchlar kuch ishlatish orqali “o`zgacha fikrlovchilar” ni ta`qib eta boshladilar. Hokimiyatni saqlab qolish Mao asosan qurolga suyandi. “Madaniy inqilob” mamlakat ijtimoiy hayotini chuqur inqiroz holatiga tushirib qo`ydi. Hatto kommunistik partiya ichida mamlakat kelajagi borasida turli qarama-qarshiliklar paydo bo`ladi. Mao Szedun o`limidan so`ng yangi hokimiyat egalari sobiq hukumat yo`l qo`ygan xatolardan zarur saboqlar chiqardi va Xitoyni rivojlanayotgan davlatlar qatoriga olib chiqdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. *Панцов А.* Мао Цзедун. Серия ЖЗЛ. — М.: Молодая гвардия, 2007.
2. *Пейн Р.* Ленин. Серия ЖЗЛ. — М.: Молодая гвардия, 2005.
3. Режим личной власти Сталина: К истории формирования. — М.: МГУ, 1989.
4. *Ресков Б., Седов Г. Усман Юсупов.* Серия ЖЗЛ. — М.: Молодая гвардия, 1976.
5. *Рыбас С.* Сталин. Серия ЖЗЛ. — М.: Молодая гвардия, 2009.
6. Советская историческая энциклопедия. ТТ. — 1— 16 — М.: «Советская Энциклопедия», 1961— 1975.
7. www.wikipedia.ru